

# PEDAGOGIK MAHORAT

**11(2)**  
**2024**



# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**11-son (2024-yil, noyabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2024**

**MUNDARIJA**

| <b>№</b>                                  | <b>Familiya I.Sh.</b>                     | <b>Mavzu</b>                                                                                                                                      | <b>Bet</b> |
|-------------------------------------------|-------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM</b> |                                           |                                                                                                                                                   |            |
| 1.                                        | <b>ОДИЛОВА Наргиза Акрамовна</b>          | Методика развития творческого мышления учащихся начальных классов на основе естествознания                                                        | 8          |
| 2.                                        | <b>AXTAMOV Izzatullo Ikromovich</b>       | Maktabgacha ta’limda mumtoz kuy va ashulalarning ahamiyati                                                                                        | 12         |
| 3.                                        | <b>ESHBOYEVA Surayyo Qahramonovna</b>     | Boshlang‘ich ta’limda kollaboratsiya asosida o‘qitishning zamonaviy ta’lim taraqqiyotidagi o‘rni                                                  | 17         |
| 4.                                        | <b>RAXIMOVA Gulbaxor Karshibayevna</b>    | Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek va jahon xalq og‘zaki ijodi janrlarini o‘rgatishda metodologik yondashuv                                            | 22         |
| 5.                                        | <b>TAJIBAEVA Mamura Tojiddinovna</b>      | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish va matnni tushunishga o‘rgatishda multiplatformadan foydalanishning dolzarbligi                           | 31         |
| 6.                                        | <b>XAITOVA E‘zoza Baxrom qizi</b>         | Maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish                                                               | 35         |
| 7.                                        | <b>YUSUPOVA Musharraf Farhod qizi</b>     | Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda matematik o‘yinlarning ahamiyati                                          | 40         |
| 8.                                        | <b>TURDIYEVA Mohira Juraqulovna</b>       | Kichik yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlarning roli va ahamiyati                                                          | 44         |
| 9.                                        | <b>FARMONOVA Saodat Sheraliyevna</b>      | Maktabgacha ta’lim tashkilotlari logoped-o‘qituvchilari va oila bilan hamkorlik ishlari                                                           | 48         |
| 10.                                       | <b>TO‘YMURODOVA Dilnoza Dilmurodovna</b>  | Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantirishda tasviriy faoliyatga o‘rgatishning ahamiyati | 53         |
| 11.                                       | <b>SHOKIROVA Madinabonu Shomurod qizi</b> | Boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish hamda boshlang‘ich sinflarda maktab va oila hamkorligini mustahkamlashda sinf rahbarining o‘rni    | 58         |
| <b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH</b>    |                                           |                                                                                                                                                   |            |
| 12.                                       | <b>ABDISAMATOVA Dildora Sobirovna</b>     | Modellashtirish asosida ona tili darslarida diologli mulqot tuzish metodikasi                                                                     | 61         |
| 13.                                       | <b>SADIKOV Erkin Tursunovich</b>          | Iltilot va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini o‘rgatishning yetakchi hamda ko‘makchi usullari                                                     | 66         |
| 14.                                       | <b>IKRAMOVA Aziza Aminovna</b>            | Developing methodologies for teaching English in Uzbekistan through artificial intelligence                                                       | 72         |
| 15.                                       | <b>ШАРИПОВА Сумора Хайдаровна</b>         | Роль лингводидактических компетенций в современном образовании                                                                                    | 77         |

## ILTIFOT VA INKORNI IFODALOVCHI NUTQ AKTLARINI O‘RGATISHNING YETAKCHI HAMDA KO‘MAKCHI USULLARI

**Sadikov Erkin Tursunovich,**

Xalqaro TESOL/TEFL instruktori

Buxoro davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrası o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Turli madaniyatlarga mansub ingliz tilida so‘zlashuvchilar soni global miqyosda ortib borayotganligi sababli ingliz tilidan, ko‘pincha, madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida foydalaniladi. Mazkur maqolada til o‘rgatish davomida o‘qituvchilarning vazifasi faqatgina o‘quvchiga tilni vosita sifatida o‘rgatish emas, balki o‘zi va boshqa xalqlarning madaniy xususiyatlarini ham o‘qitish bilan nisbatlanadi. Bu borada til o‘rganuvchilarga o‘z madaniyati va boshqalarning qadriyatlarini haqida tushuncha berish dolzarb hisoblanadi. Jarayonning jadallashishida madaniyatlararo pragmatik tadqiqotlar hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkinligi muhokama qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** nutq aktlari, iltifot, nutq strategiyasi, inkor, kommunikativ nutq.

## ВЕДУЩИЕ И ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РЕЧЕВЫМ АКТАМ, ВЫРАЖАЮЩИМ КОМПЛИМЕНТ И ОТРИЦАНИЕ

*Поскольку число носителей английского языка, принадлежащих к различным культурам, увеличивается во всём мире, английский язык часто используется как средство межкультурного общения. В данной статье задача преподавателя при обучении языку состоит не только в том, чтобы научить ученика языку как инструменту, но и преподать культурные особенности своего и других народов. В связи с этим важно дать изучающим язык понимание собственной культуры и ценностей других. Обсуждается, что межкультурные прагматические исследования могут сыграть решающую роль в ускорении этого процесса.*

**Ключевые слова:** речевые акты, комплимент, речевая стратегия, отрицание, коммуникативная речь.

## PRINCIPAL AND AUXILIARY METHODS OF TEACHING SPEECH ACTS OF COMPLIMENTS AND REFUSALS

*As the number of English speakers from different cultures increases worldwide, English is often used as a means of intercultural communication. In this article, the teacher’s task when teaching a language is not only to teach the student language as an instrument, but also to teach the cultural characteristics of his own and other peoples. Because of this, it is important to give language learners an understanding of their own culture and the values of others. It is discussed that cross-cultural pragmatic research can play a crucial role in accelerating this process.*

**Keywords:** speech acts, compliment, speech strategy, negation, communicative speech.


**Kirish.** Nutq harakatlarini amalga oshirishda pragmatik normalar yetakchi o‘rin tutib, bu muloqotga kirishuvchilarning qarashlari, bilimlari hamda madaniy qadriyatlarida plyuralizm – ya’ni turli-tumanlikni keltirib chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda, nutq aktlarining madaniy asoslari va ularga bog‘liq bo‘lgan madaniy tushunchalar har bir til va madaniyatga qarab farq qilshi tabiiy.

Nutq aktlari “kommunikativ faoliyat [lar] so‘zlash paytida so‘zlovchilarning niyatlari va tinglovchilarga ta’sir qilishlari bilan belgilanadi”. Turli madaniyatlarda turfa nutqiy harakatlarning bajarilishiga katta e’tibor berilgan. Bu, ko‘pincha, muloqotda ishtirok etadigan odamlarga tilni ijtimoiy-lingvistik jihatdan mos ravishda ishlatishga yordam berish zarurati bilan bog‘liq. Nutq aktlarini tahlil etarkanmiz, ularning o‘qitilishi va o‘rgatilishidagi mushtarakliklar va tafovutlarni taqqoslab borish ishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Quyida komplimentga ma’no va qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan yaqin bo‘lgan so‘zlarni tahlil qilib chiqamiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “iltifot” atamasi arabcha so‘z ekanligi nazarda tutiladi hamda “o‘girish”, “burish”, “lutf qilish”, “e’tibor”, “marhamat” kabi ma’nolarni ifodalashi qayd etiladi. So‘zning sharhi sifatida esa kishiga qilingan marhamat, himmat, diqqat-e’tibor, yaxshi munosabat mazmunida talqin

etiladi. Demak, “iltifot” soʻzi mohiyatiga koʻra ijobiy xususiyatni aks ettiradi, shu bilan birga, eʼtibor va marhamat qilish kabi fazilatlarini ham qamrab oladi.

1-diagramma.




**Amaliy natijalar.** Iltifotga oid nutq aktlarini talabalarga oʻrgatish asnosida pedagog ularning ongiga etiket qoidalari asosida namoyon boʻladigan epideyktik nutqning quyidagi shartlarini singdirishi muhim hisoblanadi :

- 1) iltifot uchun obyekt maqtovgʻa loyiq narsa boʻlishi kerak;
- 2) yuqori ijobiy sifatga ega boʻlgan kishi adresat sifatida harakat qilishi lozim;
- 3) adresatga murojaat qilgan shaxs; iltifot aytayotganda u, albatta, suhbatdoshining shaxsiyatini hisobga olishi joiz;
- 4) kompliment janri taqqoslashni afzal koʻradi, shu asnoda, giperbola ham tez-tez ishlatilishini eʼtiborga olish darkor.

Belgilangan maqsadlarga va uzoq muddatli natijalarga erishish uchun nutq xatti-harakatlari strategiyalaridan foydalaniladi. Nutq strategiyasi, aslida, nutqning oʻzaro taʼsiri jarayonining maʼlum bir rejasini tuzish va amalga oshirish boʻlib, u muayyan aloqa shartlarini bajarish bilan belgilanadi va motivlar, ehtiyojlar, intilishlar va, umuman olganda, kommunikativ akt ishtirokchilarining shaxsiyatini namoyon etadi. Muloqotni uygʻunlashtirish strategiyasi uchun asosiy maqsad aloqani muvaffaqiyatli oʻrnatishdir. Bizning nazdimizda bu jarayon komplimentlarni oʻqitayotgan har bir pedagogning pirovard maqsadiga aylanishi hamda bir nechta didaktik bosqichlardan iborat bu silsilani talabalarga samarali tarzda oʻrgatishi kerak.


2-diagramma.



Shu tariqa, iltifot muloqotni uygʻunlashtirish strategiyasi doirasida, ayniqsa, boshlangan muloqotning birinchi bosqichlarini yengish uchun samarali vositaga aylanishi mumkin.

Muloqot jarayonida suhbatdoshining taklifi, iltimosi va iltifotiga munosabat bildirishda soʻzlovchi ularni qabul qilish bilan bir qatorda, *rad etishi* ham mumkin. *Inkorni ifodalovchi nutq aktlari* keng qamrovli boʻlib, ularning boshqa nutq aktlari bilan oʻzaro bogʻliqligi mazkur aktlarni yanada mukammalroq qilib koʻrsatadi.


M. Celce Murcia va E. Olshtain (2007) larning yangi tahrir va izohlardagi nutq aktlari tasnifida inkorni ifodalovchi nutq aktlari beshinchi tartib raqam ostida – “Commissives” ruknining tarkibiy qismlaridan biri sifatida eʼtirof etiladi. Inkorni ifodalovchi nutq aktlari biror bir ish (taklif, yumush, burch, iltimos, iltifot)ni bajarishga nisbatan hafsalasizlik, ishtiyoqsizlik, befarqlik natijasida hosil boʻlishi mumkin. Ammo ayrim kezlarda uzrli sababning ham mavjudligi bu turdagi nutq aktlarini harakatga keltirishi mumkin.



Inkorni ifodalovchi nutq aktlarini izchil tadqiq etish yigirmanchi asrning saksoninchi yillaridan ommalasha boshladi. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati A.Viyerbeska (Wierbicka)ning 1987-yildagi “inkorni ifodalovchi nutq aktlari bu – “yo‘q” deyish demakdir” ta’rifidan so‘ng yuzaga keldi. Viyerbeskaning mazkur qisqa ta’rifidan anglash mumkinki, inkorni ifodalash yoki rad etish nazarda tutilganda, adresatga murojaatga nisbatan “yo‘q, men buni qila olmayman yoki qilmayman” qabilida munosabat bildirish e’tiborga olingan. P.Brown va S.Levinson (1987) esa inkorni ifodalovchi nutq aktlarining qo‘pol tarzda yangramasligi uchun xushmuomalalik tamoyiliga amal qilishning zarurati haqida mulohaza yuritadilar. Tadqiqotchilardan K. Bardovi-Harlig, B.S. Hartford (1990), L. B. Beebe (1990), Feliks-Brasdefer(2004), S.Tanck (2004), W.Hong (2011) ham inkorni ifodalovchi nutq aktlarini isloh qilarkanlar, ular mazkur elementlarning ESL hamda EFLni o‘qitish jarayonidagi ahamiyatiga to‘xtaladilar, shu bilan birga, raddiyatni ifodalash uchun madaniyatlararo tafovutlarning mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan xulosalar kerakligini ta’kidlaydilar.

Inkorni ifodalovchi nutq aktlarini o‘rgatish uchun ularning xarakterini chuqur anglab olish zarur, zero, ular faqat rad etishni emas, balki ma’lumot tashuvchi, ta’kidlovchi, baholovchi xususiyatlarga ega bo‘lib, ular shaklan inkorni mutlaq va qisman ifodalovchi turlarga bo‘linadi.

4-diagramma.



Mutlaq inkorni ifoda etuvchi aktlar suhbatdoshning qarashlari, istaklari adresatnikiga umuman muvofiq kelmagan taqdirda vujudga keladi. Qisman inkorni ifoda etuvchi aktlar esa suhbatdoshning nuqtayi nazari yoki xohishlari adresatniki bilan hamohang bo‘lmasa-da, rad etish jarayonida qat’iyat u qadar ham ko‘zga tashlanmaydi, shu bilan birga, inkor-javob amalga oshirilgan holatda ham, muloyimlik hamda samimiyat saqlab qolinadi.

**Qiyosiy tahlillar.** Rad etishni amalga oshirish turli madaniyat vakillari bilan turli madaniyatlararo tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lib, shu jumladan, yapon (Beebe va boshqalar, 1990; Ikoma va Shimura, 1994; Jungheim, 2006; Kodama, 1996), xitoy (Chang, 2009, 2011; Liao va Bresnaxan, 1996), koreys (Kvon, 2004; Lyuh, 1992), arab (Al-Eryani, 2008; Al-Issa, 2003; Nelson va b., 2002), indoneziya (Aziz, 2000), ispan (Félix-Brasdefer, 2006, 2008; Lauper, 1997), tay (Wannaruk, 2008), va vyetnam (Nguyen, 2006) lik tadqiqotchilarning aksariyati ingliz tili ona tili bo‘lmaganlarning ushbu strategiyadan javob tariqasida foydalanalarida (o‘z haqiqiy ona tillari) ta’sirining muqarrar bo‘lishini ta’kidlaydilar. Natijada tillararo madaniy nouyg‘unlik vujudga kelishi hamda mazkur jihat suhbat jarayoniga salbiy ta’sir etishi yoki o‘zaro tushunmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ba’zi uslubiy farqlarga qaramay, deyarli barcha tadqiqotlar “rad etishni amalga oshirish bir til va madaniyatdan boshqasiga ko‘ra farq qiladi, qolaversa, turlicha aks etadi”, degan yaxlit tamoyilga asoslanadi. Shuning uchun boshqa tildagi madaniy me’yorlarni bilish suhbatning naqadar samarali tarzda amalga oshishiga sabab bo‘lishi sifatida e’tirof etiladi. Binobarin, (Al-Eryani, 2008; Wannaruk, 2008); rad etish sabablari sifatida (Lauper, 1997); suhbatdoshlarning ijtimoiy maqom (status) farqlari (Beebe va boshqalar,

1990); va o‘quvchilarning ikkinchi tilni idrok etish xususiyatlari, diniy e‘tiqodlari (Al-Issa, 2003) kabi jihatlar ularning tanlovlariga ta‘sir qilishi mumkin.

Til (nutq)ni o‘zlashtirishdagi mashqlar tabiatiga kelsak, chet tilini o‘zlashtirish jarayonining yuqoridagi tavsifiga muvofiq, ularning bosqichma-bosqichligi ham o‘qitish ketma-ketligi bilan tartibga solinadi: birinchisi guruh darajasidagi mashqlardan iborat. Ikkinchisi esa muloqot darajasidagi mashqlar – elementar dialogdan muhokamagacha bo‘lgan fazagacha bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Kommunikativ nutqiy muloqotning uchta asosiy turi mavjud: axborot almashuvuvi, harakatlarni rejalashtirish, taassurotlarni shakllantirish. Aynan mazkur turlar asosida iltifot va inkorni ifodallovchi nutq aktlarining o‘qitilish chora-tadbirlari belgilanadi. Natijada nutq aktlarining o‘qitilish shakllari tanlandi. Quyida kompliment va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini o‘rgatishning shakllari taqdim etiladi hamda ularning kuchli va kuchsiz tomonlari muhokama qilinadi.

1- jadval.

| Kompliment va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini an‘anaviy shaklda o‘qitish                                                                                                                         |                                                                                                                                                                               |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ustunliklar                                                                                                                                                                                         | Kamchiliklar                                                                                                                                                                  |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzuning bayoni hamda mustahkamlanishini o‘qituvchi nazorat qilib boradi</li> <li>• topshiriqlar so‘rab olinadi, uyga vazifa sifatida beriladi</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• barcha talabalarni qamrab olish qiyin bo‘ladi</li> <li>• kommunikativ til muhitini hosil qilishda muammolar yuzaga keladi</li> </ul> |

Ko‘rinib turibdiki, an‘anaviy shaklda o‘qitishning o‘qituvchi – talaba o‘rtasidagi aloqalarida birinchi tomon dominantlikka ega, ikkinchi taraf esa asosan qabul qilish bilan cheklanadi. O‘quv jarayonida mikrodialog darajasida har bir turni alohida-alohida, keyin ularni ketma-ket bog‘lashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Takrorlashni o‘rganish birligi nutq aktidirki, kommunikativ nutqiy muloqotda nutq akti kommunikativ nutq birligi bilan ifodalanadi. Demak, an‘anaviy shakldagi o‘qiishda kommunikativ nutq birligi takrorlashni o‘rganish birligidir.

Kommunikativ nutq aloqasining asosiy qismi fikrlarning izchil rivojlanishi, mulohazalar, mavzuning o‘zgarishi, vaziyatning o‘zgarishi munosabati bilan muhokama mavzusini o‘z ichiga olishi mumkin. Yakuniy qismda suhbatning qisqacha mazmuni taqdim etilishi mumkin; suhbat mazmunini baholash; keyingi aloqani davom ettirish imkonsiz bo‘lgan taqdirda, uning sabablari ko‘rsatilishi muqarrardir. Kommunikativ nutq shaklida nutq gaplar zanjiri bo‘lib, bunda har bitta bo‘g‘in muayyan suhbatdoshning gapi sifatida anglashilib, bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan bir yoki bir nechta iboralardan tarkib topib, har bir bo‘g‘inning chegarasi boshqa suhbatdoshning gapi hisoblanadi.

So‘zlovchining motivlari, mulohazalarning mazmuni, qo‘llaniladigan til va nutq vositalarini tanlash nutq muloqotida kim suhbatdosh ekanligi bilan belgilanadi: bu borada shaxsning ijtimoiy mavqei, xususiyatlari, xabardorlik darajasi e‘tiborga olinadi. Shuning uchun o‘qituvchi kommunikativ nutq aloqasi uchun vaziyatlarni diqqat bilan ishlab chiqishi lozim. Bu borada iltifot va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini o‘qitishda noan‘anaviy o‘qitish shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq.

2- jadval.

| Kompliment va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini noan‘anaviy shaklda o‘qitish                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                   |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ustunliklar                                                                                                                                                                                                                         | Kamchiliklar                                                                                                                                                                                                      |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• matbuot anjumani, reportaj, intervyu, estafeta, duel, rolli ijrolar, krosvordlardan foydalanish orqali talabalarining qiziqishi va darsga bo‘lgan ijobiy munosabatini uyg‘otish</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• ayrim nafaol talabalarining ishtirokini qo‘llab-quvvatlash uchun yetarlicha vaqt ajrata olmaslik</li> <li>• nutqiy va amaliy jarayonlarda shovqinning oshishi</li> </ul> |

Muloqotdan bosh tortish murakkab ko‘p bosqichli jarayondir. Belgilangan kommunikativ maqsad va ekstralingvistik omillar mavjudligiga qarab, rad etishning bir necha turlari, uni amalga oshirish strategiyasi va taktikasi mavjud. Bundan tashqari, rad etish og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan tarzda ifodalanishi mumkin.

Individual kommunikativ kategoriyalarni lingvokulturologik jihatdan solishtirish ingliz yoki o‘zbek tillarida muloqot qiladigan talabalarga nafaqat leksik va grammatik tuzilmalarni, balki tahlil qilinayotgan til madaniyatlarining nutq etikasining o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

Ingliz tilidagi rad etish ifodasi, ko‘pincha, yuqori darajadagi xushmuomalalik bilan tavsiflanadi, bu strategik nizolarning oldini olish va hamkorlikdagi muloqotni o‘rnatish usuli sifatida qaraladi. Rad etish

minnatdorchilik, kechirim so‘rash va oqlash formulalari orqali bevosita ifodalanadi, so‘ngra darhol harakatni boshqa vaqtda bajarish taklifi bilan kompensatsiya taklif etiladi.

O‘zbek tili ham ingliz tili kabi, yuqori darajada xushmuomalalik bilan ajralib turadi. Buning sababi, o‘zbek tili rad etishni ifodalash uchun har xil barqaror formulalarga va turli xil xushmuomalalik aktualizatorlariga boy.

Aksariyat hollarda rad etish ifodasi uning asosi bilan birga keladi. O‘zbek madaniyati ijtimoiy ierarxiyaning mavjudligi bilan ajralib turadi, bu tilda ham o‘z aksini topadi. O‘zbek nutq madaniyatida “siz” va “sen”ning mavjudligi muloqotning darajasini ko‘rsatishga xizmat qilishi ma’lum. Deylik, “siz” murojaatda aksariyat hollarda ijtimoiy masofani kattalashtirsa, “sen” uni shu qadar yaqinlashtiradi. Aniqroq aytsak, o‘zbek tilidagi muloqotda suhbatdoshlar orasidagi gorizontaal masofa qisqaroq va yaqinlik darajasi yuqoriroq, shuning uchun ingliz kommunikatorlari singari bir xil intensivlik darajasi bilan motivatsiyani minimallashtiradigan strategiyalardan foydalanishning hojati yo‘q.

3- jadval.

| Kompliment va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini zamonaviy shaklda o‘qitish                                                                                                                                   |                                                                                                                                                                             |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ustunliklar                                                                                                                                                                                                   | Kamchiliklar                                                                                                                                                                |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>talabalarning mantiqiy fikrlashlari va psixologik holatlarini motivlashgan tarzda manipulyatsiya qilish, didaktik (asosiy) tamoyillardan unumli foydalanish</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>til materialining murakkab shakllaridan foydalanish jarayonida o‘qituvchi rolining pastligi, ko‘p vaqtning talab etilishi</li> </ul> |

**Xulosalar.** O‘zbek tilidagi muloqotda vertikal masofa ingliz tiliga qaraganda yuqori, so‘zlovchi ko‘p holatlarda taklif, iltimos, buyruq berish yoki so‘rovlar qilish uchun yetarli kuch va huquqlarga ega hamda uning harakatlari odatda tinglovchi tomonidan qabul qilinadi. Ingliz tilidagi muloqot suhbatdoshga kommunikativ bosimni sezilarli darajada kamaytirish bilan tavsiflanadi. Kommunikativ bosimni kamaytirishda iltifot va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini o‘qitishda esa zamonaviy shakl tanlanishi ahamiyatli. Yuqoridagi iltifot, iltimos va takliflarga nisbatan rad javobining qo‘llanilishiga oid nutq vaziyatlari va iltifotni ifodalovchi nutq aktlarini o‘qitishda yuqoridagi omillar dolzarb sanaladi.

#### Adabiyotlar:

1. Rasulov Z. (2023). Pedagogika va psixologiyada manipulyatsiya tushunchasi. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 39(39).
2. Rasulov Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. // Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 8(8).
3. Rasulov Z. I. (2023). The notion of non-equivalent words and realias in english and uzbek languages. // Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(6), 35-40.
4. Sadikov E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. // Interpretation and researches, 1(15).
5. Tursunovich S. E. (2021). Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. // European Scholar Journal, 2(12), 9-12.
6. Sadikov E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. // Interpretation and researches, 1(15).
7. Sadikov E. (2024). Innovative Ways Of Teaching Speech Acts Through Auditory Skills. // Science and innovation in the education system, 3(2), 5-8.
8. Tursunovich S. E. (2022). Noval Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts.
9. Sadikov E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 27(27).
10. Tursunovich S. E. (2021). Speech acts of refusals: Challenging the challenges. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2063-2067.
11. Садиков Э. Т. (2023). Прагматико-семантический анализ значения. // Scientific progress, 4(4), 157-160.
12. Tursunovich S. E. (2021). Teaching speech acts of compliments: What is what?
13. Tursunovich S. E. Teaching pragmatic competence in EFL context: the case of Uzbek EFL teachers. Язык И Культура, 55.

14. Sadikov E. T. (2021). Establishing Connectivity Between Grammar Skill Approach And Speech Acts. Is Pragmatics In Or Out. // Вестник Магистратуры, 52.
15. Tursunovich S. E. (2021). The role of pragmatics in overcoming challenges of academic writing. // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 247-249.